



ISSN: 2181-9416

4-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 4

LAWYER HERALD

ISSUE 4



SHAKUROV Rafik Ravilyevich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi, dotsent
E-mail: shakurov.rafik.67@mail.ru

KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING MUQARRARLIGI PRINSIPINI TA'MINLASH CHORALARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): SHAKUROV R.R. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlash choralari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 170-176.

 4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-018>

ANNOTATSIYA

Maqolada korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Milliy qonunchilik, xalqaro huquqiy hujjatlar, xorijiy tajriba hamda ilmiy yondashuvlar tahlili asosida "korruptsiya", "korruptsiyaga oid huquqbuzarlik", "korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning turlari", "yuridik javobgarlik turlari" va "javobgarlikning muqarrarlighi" tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni tasniflash masalalari, fuqarolik-huquqiy, intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, korruptsiyaviy jinoyatlarni belgilash hamda korruptsiya haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga oid qonunchilikdagi yangiliklar ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik turlari, korruptsiyaviy jinoyatlarning huquqiy tavsifi hamda ularni tasniflashga doir yondashuvlar tadqiq etilgan. Javobgarlikning muqarrarlighi prinsipi bilan jinoiy jazoning maqsadlarini o'zaro farqlash, shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning o'rni va xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari alohida tahlil qilingan. Maqola yakunida javobgarlikning muqarrarlighini ta'minlash korruptsiyaga qarshi siyosat samaradorligini oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishning muhim sharti ekanligi to'g'risida xulosa chiqarilgan.

Kalit so'zlar: javobgarlikning muqarrarlighi, konvensiya, korruptsiya, korruptsiyaga oid jinoyatlar, korruptsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar, prinsip, xalqaro hamkorlik.

ШАКУРОВ Рафик Равильевич

Доцент Института переподготовки и повышения
юридических кадров при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,
кандидат юридических наук, доцент
E-mail: shakurov.rafik.67@mail.ru

МЕРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИНЦИПА НЕОТВРАТИМОСТИ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА СОВЕРШЕНИЕ КОРРУПЦИОННЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы теоретические и практические аспекты обеспечения принципа неотвратимости ответственности за коррупционные правонарушения как одно из ключевых направлений государственной политики Республики Узбекистан в сфере противодействия коррупции. На основе анализа национального законодательства, международных правовых актов, зарубежного опыта и научных подходов раскрывается содержание понятий «коррупция», «коррупционное правонарушение», «виды коррупционных правонарушений», «виды юридической ответственности» и «неотвратимость ответственности». Рассматриваются вопросы классификации коррупционных правонарушений, особенности применения гражданско-правовой, дисциплинарной, административной и уголовной ответственности, а также законодательные новеллы, связанные с определением коррупционных преступлений и усилением гарантий защиты лиц, сообщающих о коррупции. Кроме того, исследованы виды юридической ответственности за коррупционные правонарушения, правовая характеристика коррупционных преступлений, а также подходы к их классификации. Особое внимание уделено разграничению принципа неотвратимости ответственности и целей уголовного наказания, а также анализу роли международного сотрудничества и имплементации международных стандартов в национальное законодательство. Сделан вывод о том, что обеспечение неотвратимости ответственности является необходимым условием повышения эффективности антикоррупционной политики, укрепления законности и предупреждения коррупционных правонарушений.

Ключевые слова: конвенция, коррупция, коррупционные административные правонарушения, коррупционные правонарушения, коррупционные преступления, международное сотрудничество, неотвратимость ответственности, принцип.

RAFIK Shakurov

Associate Professor of Training Institute
for lawyers under the Ministry of Justice of the
Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences,
associate professor
E-mail: shakurov.rafik.67@mail.ru

MEASURES TO ENSURE THE PRINCIPLE OF THE INEVITABILITY OF LIABILITY FOR CORRUPTION-RELATED OFFENSES

ANNOTATION

This article analyzes the theoretical and practical aspects of ensuring the principle of the inevitability of liability for corruption-related offenses in the Republic of Uzbekistan. It examines the legal content of the concepts of "corruption," "corruption-related offense," "types of corruption-related offenses," "types of legal liability," and the "principle of the inevitability of liability" on the basis of national legislation, the

experience of foreign countries, and scholarly approaches. In addition, the article explores the types of legal liability for corruption-related offenses, the legal characteristics of corruption crimes, and approaches to their classification. It substantiates that the essence of the principle of the inevitability of liability lies not in increasing the severity of punishment, but in ensuring that every offender is inevitably held liable in accordance with the law. Furthermore, the article discusses the mechanisms for the legal protection and encouragement of persons who report acts of corruption, the issues of cooperation among law enforcement agencies, as well as the role and significance of international cooperation in ensuring this principle. The study also develops scientific conclusions and practical recommendations aimed at further enhancing the effectiveness of ensuring the principle of the inevitability of liability in the field of anti-corruption.

Keywords: convention, corruption, corruption-related administrative offenses, corruption-related offenses, corruption crimes, international cooperation, the principle of the inevitability of liability.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarlari prinsipini ta'minlashdan iborat [1].

Mazkur prinsipni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qator tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tezkor xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minot joriy etildi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni davlat byudjeti mablag'lari hisobidan rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yildi, sud hokimiyatining mustaqilligi va sudlar faoliyatining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik yanada takomillashtirildi. Mazkur chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini oshirish hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarlari prinsipini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarga qaramasdan, ayrim sohalarda korrupsiya holatlarining hanzugacha saqlanib qolayotgani mazkur huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni o'z vaqtida aniqlash hamda ular uchun javobgarlikning muqarrarlari yanada samarali ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Har qanday huquqiy institutning mazmun-mohiyati uni ifodalovchi tushuncha va huquqiy atamalarining ilmiy-huquqiy tahlili orqali ochib beriladi. Shu nuqtayi nazardan, ko'rib chiqilayotgan prinsipning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash uchun, avvalo, unga oid tushunchalar hamda uni ifodalovchi huquqiy atamalarining mazmunini aniqlash zarur.

O'rganilayotgan prinsipning mazmun-mohiyatini kompleks ravishda yoritish uchun, avvalo, uning mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'lgan "korrupsiya", "korrupsiyaga oid huquqbuzarlik", "korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning turlari", "javobgarlikning turlari" hamda "javobgarlikning muqarrarlari" tushunchalarining huquqiy mazmunini tahlil qilish zarur, deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, "korrupsiya" atamasi lotin tilidagi corrumpere so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning dastlabki ma'nosi "buzish", "pora evaziga og'dirish" kabi tushunchalarni anglatadi. Biroq mazkur atamaning mazmuni barcha korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni to'liq qamrab olmaydi.

Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, mazkur tushuncha asosan noqonuniy mulkiy manfaat olish bilan bog'liq holatlarga yo'naltirilgan bo'lib, korrupsiyaning boshqa shakllari e'tibordan chetda qolishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ayrim olimlar bunday yondashuv to'liq asosli emasligini hamda "korrupsiya" tushunchasi korrupsiyaga oid boshqa huquqbuzarliklarni ham qamrab olishi lozimligini ta'kidlaydilar [2]. Boshqa mualliflar esa mazkur atama nafaqat korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni, balki manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarni, jumladan, lobbizm kabi munosabatlarni ham qamrab olishi mumkinligini qayd etadilar [3].

Bugungi kunda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik tushunchasining mazmuni yuzasidan mavjud ilmiy bahslarni aniqlashtirishda xorijiy davlatlar qonunchiligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Qozog'iston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida korrupsiyaga oid

huquqbuzarlik korrupsiya belgilariga ega bo'lgan hamda uni sodir etganlik uchun qonunda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan noqonuniy, aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sifatida ta'riflangan [4].

Ko'rinib turibdiki, mazkur ta'rifda korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning muhim yuridik belgilari, jumladan, ayblilik, huquqqa xiloflik hamda huquqiy javobgarlikning mavjudligi o'z ifodasini topgan.

Bundan farqli ravishda, Belarus Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlarida korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlik tushunchasiga alohida ta'rif berilmagan. Biroq mazkur qonunlarda korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun nazarda tutilgan javobgarlik turlari yoki ularning asosiy ko'rinishlari belgilab o'tilgan [5].

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasiga muvofiq, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish sifatida ta'riflangan. Ko'rinib turibdiki, qonun chiqaruvchi mazkur tushunchani ifodalashda "korrupsiyaga oid huquqbuzarlik" atamasini qo'llagan. Shu bois, amaliyotda uchrab turadigan "korrupsiyaviy huquqbuzarlik" va "korrupsiyaviy jinoyat" kabi iboralarning qo'llanilishi milliy qonunchilik terminologiyasiga to'liq muvofiq kelmaydi, deb hisoblaymiz.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hamda ilmiy adabiyotlar tahlili korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning turlari turli mezonlar asosida tasniflanishini ko'rsatadi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga muvofiq, Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganliklari uchun Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq jinoiy, ma'muriy, fuqarolik-huquqiy va intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

Mazkur norma mazmunidan kelib chiqib, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni to'rt turga, ya'ni korrupsiyaga oid jinoyatlar, korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar, korrupsiya bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy huquqbuzarliklar hamda korrupsiya bilan bog'liq intizomiy huquqbuzarliklarga ajratadi.

Boshqa aksariyat xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi tahlili esa korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni asosan ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarga ajratish amaliyoti keng tarqalganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar qonunchiligida nazarda tutilgan korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarning aksariyati mazmunan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bilan o'xshash huquqiy belgilarga ega.

Milliy qonunchiligimizda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni turlarga ajratish masalasi ilk bor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom"da o'z ifodasini topgan. Xususan, mazkur Nizomning 3-bandida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar ikki turga, ya'ni korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar va korrupsiyaga oid jinoyatlarga ajratilgan [6].

Bugungi kunda, mamlakatimizda yangi turdagi korrupsiyaviy alomatlarga ega jinoyatlarning paydo bo'lishi, korrupsiyaga oid jinoyatlarning turlarini belgilovchi normativ-huquqiy aktlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 22-iyundagi O'RQ-1155-son Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo'limi "Atamalarining huquqiy ma'nosi" korrupsiyaga oid jinoyatlar atamasi bilan to'ldirilishi ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Qonunga muvofiq, korrupsiyaga oid jinoyatlarga – ushbu Kodeks 167-moddasi uchinchi qismining "d" bandida, 168-moddasi to'rtinchi qismining "g" bandida, 192⁹, 192¹⁰-moddalarida, 192¹¹-moddasi ikkinchi qismining "v" bandida, 205-moddasi ikkinchi qismining "v" bandida, 206-moddasi ikkinchi qismining "v" bandida, 208-moddasining ikkinchi qismida, 209-moddasi ikkinchi qismining "v" bandida, 210, 211, 212, 213, 214, 214¹, 214²-moddalarida va 301-moddasi ikkinchi qismining "b" bandida nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ushbu Kodeksning 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyat (agar mazkur jinoyat

korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etish natijasida olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq holda sodir etilgan bo'lsa) kiradi [8].

Shu o'rinda, huquqbuzarliklarni korruptsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiritishda ularning mazmun va mohiyatini anglash ahamiyat kasb etadi. Jumladan, V. N. Kudryavsev fikriga ko'ra, korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar deganda – Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan hamda davlat hokimiyati va davlat xizmati manfaatlariga bevosita tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlar tushunilishi lozim, bunday qilmishlar mansabdor shaxslar tomonidan noqonuniy ravishda manfaatlar (mol-mulk, unga bo'lgan huquqlar, xizmatlar yoki imtiyozlar) olish yoki ular tomonidan shunday manfaatlarni taqdim etish tarzida namoyon bo'ladi [9].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim olimlar korruptsiyaga oid jinoyatlarni ommaviy (publichnie) va ommaviy bo'lmagan (nepublichnie) turlarga ajratishni taklif etadilar. Masalan, Yu.Yu. Malishevaning fikricha, ommaviy korruptsiyaga oid jinoyatlar mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilari tomonidan, ommaviy bo'lmagan korruptsiyaga oid jinoyatlar esa boshqa shaxslar tomonidan sodir etiladi. Muallif ommaviy korruptsiyaga oid jinoyatlarga pora olish va berish, mansab soxtakorligi kabi qilmishlarni, ommaviy bo'lmagan korruptsiyaga oid jinoyatlarga esa sport musobaqalari ishtirokchilarini pora evaziga og'dirib olish hamda tijoratda pora evaziga og'dirib olish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni kiritadi [10].

Fikrimizcha, mazkur tasnifning asosida korruptsiyaga oid jinoyatlarning davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi manfaatlariga yetkazadigan zarari darajasi yotadi. Zero, mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan korruptsiyaga oid jinoyatlar davlat hokimiyati organlarining qonuniy faoliyatiga, davlat boshqaruvining samaradorligiga hamda davlat xizmati obro'siga bevosita putur yetkazadi.

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning turlarga ajratilishi ularni sodir etganlik uchun nazarda tutilgan javobgarlik turlarini aniqlashga ham xizmat qiladi.

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik turlarining alohida tasnifi berilmagan. Biroq, ilmiy adabiyotlarda mazkur huquqbuzarliklar uchun fuqarolik-huquqiy, intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik turlari ajratib ko'rsatiladi. Xususan, Sh.J.Haydarov korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun aynan shu turdagi yuridik javobgarlik choralari nazarda tutilganligini ta'kidlaydi [7].

Jumladan, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik natijasida fuqarolik qonunchiligi bilan muhofaza qilinadigan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilganda fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuzaga keladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 114-moddasiga muvofiq, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitimni ijro etish bilan bog'liq xarajatlar manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan shaxs hisobidan qoplanishi mumkin.

Intizomiy javobgarlik esa xodim tomonidan mehnat yoki xizmat intizomini buzish bilan bog'liq intizomiy nojo'ya xatti-harakat sodir etilgan hollarda yuzaga keladi. Bunday huquqbuzarliklar tashkilotning Odob-axloq qoidalari (kodeksi)da nazarda tutilgan axloqiy ta'sir choralari yoki O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasiga muvofiq intizomiy jazo choralari, xususan, hayfsan berish, o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima qo'llash yoxud mehnat shartnomasini bekor qilishni qo'llash uchun asos bo'ladi.

Ko'rib chiqilayotgan prinsipning mazmun-mohiyatini ochib berishda asosiy ahamiyat javobgarlikning muqarrarligi tushunchasiga qaratiladi, chunki mazkur prinsipning huquqiy mazmuni aynan ushbu tushuncha orqali ifodalanadi.

Ayrim olimlar, jumladan, jinoyatlar uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida fikr yuritir ekan, ushbu prinsipning mohiyati jazoning og'irligida emasligini ta'kidlaydilar. Xususan, Ma'rifatparvarlik davrining mashhur italiyalik huquqshunos, faylasuf va mutafakkiri Chezare Bekkaria (1738–1794) "Jinoyatlar va jazolar haqida" ("Dei delitti e delle pene") nomli asarida jazoning samaradorligi uning qattiqligiga emas, balki muqarrarligiga bog'liq ekanini ta'kidlab: "Insonlarga jazoning og'irligi emas, balki uning muqarrarligi eng kuchli ta'sir ko'rsatadi", degan fikrni ilgari surgan [11].

Ta'kidlangan va boshqa olimlarning qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, javobgarlikning muqarrarliligi prinsipi yangi jazo turlarini joriy etish yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan sanksiyalarni og'irlashtirishni emas, balki huquqbuzarlikni sodir etgan har bir shaxsning muqarrar ravishda qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishi hamda qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlik choralarining amalda qo'llanilishini ta'minlashni anglatadi.

Mazkur xulosa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini mustahkamlovchi 10-moddasi mazmuni bilan ham tasdiqlanadi. Xususan, ushbu moddaga muvofiq: "Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart", deb belgilangan. Javobgarlikning muqarrarliligi prinsipining Jinoyat kodeksida mustahkamlangani qilmishida jinoyat tarkibi mavjudligi aniqlangan har bir shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishi muqarrarliligini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Mazkur norma jinoyat sodir etgan shaxsning qonun oldida javobgar bo'lishi muqarrar ekanligini ifoda etadi hamda jinoyat qonunining adolatli va samarali qo'llanilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini jinoyat uchun jazoning maqsadlaridan farqlash lozimligini ta'kidlash joiz. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 42-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, jinoyat uchun jazoning maqsadlaridan biri yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdan iborat.

Jinoyat sodir etgan shaxsga jazo tayinlashdan ko'zlangan muhim maqsadlardan yana biri boshqa shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish hisoblanadi. Adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, mazkur maqsad fuqarolarni jinoyat sodir etishdan qaytarishga qaratilgan bo'lib, inson ongi va irodasiga ta'sir ko'rsatish orqali ularni jinoyat sodir etishdan tiyib turishga xizmat qiluvchi maxsus tarbiyaviy-psixologik choralar tizimi sifatida namoyon bo'ladi [13].

Demak, jinoyat sodir etilishining oldini olish tushunchasidan farqli ravishda, javobgarlikning muqarrarliligi prinsipi korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etgan har bir shaxsning qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishi va bunday huquqbuzarlik javobgarliksiz qolmasligini anglatadi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarliligini ta'minlashda ushbu huquqbuzarliklar haqida asosli xabar bergan shaxslarning huquqiy himoyasi hamda ularni rag'batlantirishga doir kafolatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 22-iyundagi O'RQ-1155-son Qonuni bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasiga kiritilgan o'zgartishlar mazkur prinsipni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim huquqiy kafolatlardan biri hisoblanadi.

Xususan, mazkur moddaning beshinchi, oltinchi va yettinchi qismlariga muvofiq, mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organida korrupsiyaga oid jinoyat to'g'risida asosli xabar bergan shaxsga nisbatan ikki yil davomida intizomiy jazo choralari qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan shaxslarni bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma, esdalik sovg'asi yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa shakllarda rag'batlantirish davlat tomonidan kafolatlanishi belgilangan.

So'z yuritilayotgan prinsipni ta'minlashda xalqaro hamkorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasining Xalqaro moliya-tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy davlat mansabdor shaxslariga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) Konvensiyasiga [14] qo'shilishi mamlakatimizning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlarga sodiqligini namoyon etadi. Ayni paytda, mazkur Konvensiya korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ular uchun javobgarlikning muqarrarliligini ta'minlashga qaratilgan ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va qo'llash, shuningdek, ushbu illatga qarshi kurashishda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Konvensiyada ishtirok etish O'zbekistonning korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish, huquqbuzarlarni ekstraditsiya qilish, o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish hamda ishtirokchi davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan axborot almashish sohasidagi xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, Konvensiyaning qator qoidalari milliy qonunchilik

va huquqni qo'llash amaliyotiga allaqachon implementatsiya qilingan. Jumladan, Konvensiyaning 3-moddasi ("Sanksiyalar")da nazarda tutilgan jazo tayinlashda mutanosiblik prinsipiga rioya qilish talabi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida o'z ifodasini topgan va amaliyotda ta'minlanib kelinmoqda. Shuningdek, Konvensiyaning 4-moddasida nazarda tutilgan yurisdiksiya va 6-moddasida belgilangan da'vo muddatiga oid qoidalar milliy qonunchilikda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 11, 12 va 13-moddalari ("Jinoyat qonunining amal qilishi") hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 36-moddasi ("Ma'muriy jazo qo'llash muddatlari") bilan huquqiy jihatdan tartibga solingan.

Tahlil natijalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining muhim prinsiplaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Ushbu prinsipning mazmun-mohiyati korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning huquqiy tabiati, ularning tasnifi hamda javobgarlik turlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning amaliy ahamiyati huquqbuzarlik sodir etgan har bir shaxsning qonunga muvofiq muqarrar ravishda javobgarlikka tortilishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, amalga oshirilgan islohotlar, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/ЧОККИ/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-410-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/-3088008>
2. Криминология: учеб. для вузов / под общей ред. А.И. Долговой. 4-е изд., перераб. и доп. – М., 2005. – С. 708/ <https://studfile.net/preview/1462734/page:72>
3. Кадырова Н.Н., Шлей К.А. К вопросу о понятии коррупции и коррупционной преступности/ Bulletin of Chelyabinsk State University. Series: Law. 2019. Vol. 4, iss. 2 // <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-ponyati-korrupsii-i-korrupsionnoy-prestupnosti/viewer>
4. Закон Республики Казахстан от 18 ноября 2015 года №410-V-ЗРК «О противодействии коррупции» // <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1500000410>
5. Федеральный закон от 25 декабря 2008 года «О противодействии коррупции»// <https://rg.ru/documents/2008/12/30/korruptcia-fz-dok.html>; Закон Республики Беларусь от 15 июля 2015 года № 305-З «О борьбе с коррупцией» // <https://pravo.by/document/?guid=12551&p0=H11500305>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori/<https://lex.uz/uz/docs/-5193571>
7. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 22-iyundagi O'RQ-1155-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni/<https://lex.uz/uz/docs/-8282286>
8. Криминология. Учебник. Под ред. В.Н. Кудрявцева и В.Е. Эминова. – М., 2022. – С. 386 / <https://so.11klasov.net/9964-kriminologija-pod-redakciej-kudrjavceva-vn-jeminova-ve.html>
9. Малышева Ю.Ю. Понятие коррупционного преступления по уголовному законодательству современной России / Угрозы и безопасность, № 36 (177). 2012 // <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-korrupsionnogo-prestupleniya-po-ugolovnomu-zakonodatelstvu-sovremennoy-rossii/viewer>
10. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik // Mas'ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: –Toshkent: "Akademiya", 2022. – B.141/ <https://journalss.org/index.php/obr/article/view/6509>
11. Беккариа, Чезаре (1738-1794). О преступлениях и наказаниях / Чезаре Беккариа; Биогр. очерк и пер. книги Беккариа «О преступлениях и наказаниях» проф. М.М. Исаева. – Москва, 1939. – 464 с./ <https://www.prilib.ru/item/1050681>
12. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik (To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri) / R. Kabulov, A. A. Otajonov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – B.324-325.
13. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT/OESD)ning Xalqaro tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy davlat mansabdor shaxslariga pora berishga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasi (1997-yil qabul qilingan)/ https://uz.wikipedia.org/wiki/OECDning_pora_berishga_qarshi_kurash_to%28%80%98g%E2%80%98risidagi_konvensiyasi.

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА
HOMEPI 4

LAWYER HERALD
ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/4
2026-YIL